

**ZAMBURUG‘LI KASALLIKLARNI DAVOLASHDA  
QO‘LLANILADIGAN AYRIM DORI VOSITALARI TASNIFI VA TIBBIY  
AMALIYOTGA TADBIQ ETILISH TARIXI**

**Qirg‘izov SH.M.**

Andijon davlat universiteti, kimyo kafedrası professori

**Ismailova M.K.**

Andijon davlat universiteti kimyo ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: [madinaxonismailova00@gmail.com](mailto:madinaxonismailova00@gmail.com).

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada zamburug‘li kasalliklarni davolashda qo‘llaniladigan ayrim zamonaviy dori vositalarining tasnifi va zamburug‘li kasalliklarning turi bo‘yicha dori vositari ta‘sir mexanizmi, qo‘llanilayotgan zamonaviy vositalarning ijobiy va salbiy ta‘siri, ayrim dori vositalarining tibbiyot amaliyotiga joriy etilish tarixi va zamburug‘li kasalliklarni davolashda xalq tabobati usullarining afzalliklari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Antifungal, poliyenli antibiotiklar, allilaminlar, imidazol hosilalari triazol hosilalari, chuqur yoki tizimli mikoz, epidermomikoz.

So‘nggi o‘n yil muddat ichida zamburug‘li kasalliklar bilan kasallanish xavfi sezilarli darajada oshib ketdi. Ko‘plab tashqi omillar bilan bir qatorda keng qamrovli antibiotiklarning tibbiyot amaliyotida keng foydalanilishi, hamda immunosupressantlar va boshqa dori guruhlaridan bilvosita betartib foydalanish ham kasallikka ko‘p chalinish holatlari sonini orttirib yubormoqda. Bundan tashqari zamburug‘li kasalliklarning soni keskin ortishiga avval patogen bo‘lmagan zamburug‘ turlarining aniqlanishi, turli xildagi virusli va bakteriyali kasalliklar soni ortishi,

zamburug‘li kasalliklarni davolashda qo‘llanilayotgan dori vositalariga nisbatan patogenlarning chidamlilik darajasi oshishi ham sabab bo‘lmoqda. Shu sababli hozirgi kunga kelib, samarali antifulgal dori vositalari talab yanada ortdi.

Antifungal dori vositalari (antimikotiklar) – fungitsid yoki fungistatik ta’sir mexanizmiga ega bo‘lgan zamburug‘li kasalliklarni oldini olishda va davolashda qo‘llaniladigan dori vositalari hisoblanadi.

Zamburug‘li kasalliklarni davolashda kelib chiqishi tabiiy va sintetik bo‘lgan dori vositalari ko‘plab dori vositalari qo‘llaniladi. Bu dorilar zararlangan soxaga fungitsid yoki fungistatik mexanizmida ta’sir qiladi. Zamburug‘larga qarshi qo‘llaniladigan dorilar guruhiga kiruvchi vositalar bir necha xil tasnifi mavjud:

- Kimyoviy tuzilishiga ko‘ra.
- Ta’sir qilish mexanizmiga ko‘ra.
- Ta’sir qilish spektri bo‘yicha.
- Dori vositalarining farmakokinetikasi bo‘yicha.
- Klinik foydalanish xususiyatlariga ko‘ra.

Kimyoviy tuzilishiga ko‘ra zamburug‘larga qarshi dori vositalari quyidagicha tasniflanadi:

1. Poliyenli antibiotiklar – nystatin, levorin, natamitsin, amfoteritsin, amfoteritsin B, mikogeptin.
2. Imidazol hosilalari - mikonazol, ketokonazol, izokonazol, klotrimazol, ekonazol, bifonazol, oksikonazol, butokonazol.
3. Triazol hosilalari – flukonazol, itrakonazol, vorikonazol.
4. Allilaminlar ( N-metilnaftalin hosilalari) – terbinafin, naftifin.
5. Shu kabi ta’sir mexanizmiga ega bo‘lgan boshqa dori guruxlariga kiruvchi vositalari: griseofulvin, amorolfn, siklopiroks, mikafungin, flutsitozin.

Yuzaga kelgan zamburug‘li kasallikning turiga ko‘ra ham qo‘llaniladigan dori vositalari guruhlanadi:

1. Chuqur yoki tizimli mikozi turlarida jumladan, koksidioidomikoz, blastomikoz, gistoplazmos, kriptokokkoz kabi turlarda antibiotiklardan amfoteritsin B,

mikogeptin; imidazol hosilalaridan mikonazol, ketokonazol; triazol hosilalaridan flukonazol, itrakonazol kabi dori vositalari qo‘llaniladi.

2. Epidermomikoz ya’ni dermatomikoz bilan kasallanganda esa antibiotiklardan griseofulvin, N-metilnaftalin hosilalari, nitrofenol (xlornitrofenol) hosilalari, yodning spirtli eritmalari yoki kaliy yodiddan foydalaniladi.

Zamburug‘li kasalliklarni ya’ni mikrozlarni davolashda dori vositasini patogenning turiga, kasallikning klinik holatiga, kasallikning yoyilish soxasiga, keltirib chiqargan omillarga qarab qolaversa tanlanayotgan dori vositasining farmakodinamikasiga qarab tanlash zarur.

Zamburug‘li kasalliklarda hozirgi kunfa qo‘llaniladigan dori vositalari turi yuzdan ortiq. Ammo bu davrgacha bo‘lgan vaqtda zamburug‘li kasalliklar mahalliy moddalar yordamida davolanib kelingan. Zamburug‘li kasalliklar juda qadim zamonlardan beri ma’lum hisoblanadi. Lekin patogen hisoblangan kasallik turlaridan dermatomikozlar va kandidozlarning qo‘zg‘atuvchilari XIX-asr o‘rtalari va XX-asrning boshlaridagina ma’lum bo‘lgan. Ko‘plab kasallikni davolovchi dori vositalarining tarkibi qo‘llanilishi hali noma’lum bo‘lgan vaqtlarda kasallikni davolash uchun antiseptiklardan va kaliy yodid eritmasidan keng foydalanilgan. XX asrda polien antibiotic hisoblangan nistatin dori vositasi kashf etilishi bilan nistatin kandidozni davolashda keng ishlatila boshlangan. Hozirgi kunda shu kabi ta’sir nexanizmiga ega bo‘lgan griseofulvin birinchi marta 1939-yilda ajratib olingan bo‘lib, avval o‘simliklarda uchraydigan zamburug‘li kasalliklarni bartaraf etishda keng foydalanilgan. 1958- yildan boshlab tibbiyot amaliyotiga joriy etilgan. Bu preparat odamlarni dermatomikozdan davolashda qo‘llanilgan birinchi o‘ziga xos farmakodinamikaga ega bo‘lgan antimikotik dori vositasi hisoblangan. Yuqorida keltirilgan dori vositalaridan farqli o‘laroq chuqur mikrozlarni davolashda qo‘llaniladigan amfoteritsin-B 1956-yildan boshlab tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etilgan.

Hozirgi kunga zamonaviy tibbiyotda poliyenli antibiotiklarning kasallikkka ta’sir qilish mexanizmi to‘liq o‘rganilgan. Bu tur dori vositalari zamburug‘ning hujayra

membranasining yaxlitligini buzadi, bu esa o‘z navbatida hujayraning makromolekulalari va ionlarining yo‘qolishiga, hujayraning lizisiga olib keladi. Shu guruhga mansub bo‘lgan nystatin, levorin, natamitsin kabi dori vositalari kandidozlar uchun mahalliy va og‘iz orqali qabul qilinadi. Ba‘zan og‘iz orqali qo‘llanilganda ayrim nojo‘ya ta’sirlar keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘ngil aynishi, qusish, diareya, qorin og‘rig‘i shuningdek bemor o‘zini noxush sezishi shu kabi alomatlar hisoblanadi.

Zamonaviy dori vositalaridan foydalanish doim ham eng maqbul yechim bo‘la olmaydi. Sababini esa ular keltirib chiqaruvchi nojo‘ya ta’sirlar ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun shu kabi kasalliklarni davolashda hozirgi kunga kelib xalq tabobatidan keng foydalanish ommalashmoqda. Kasallarni xalq tabobati usullari bilan davolash nafaqat nojo‘ya ta’sirlarni kamaytiradi balki dori vositalarini oshqozon-ichak, jigar, o‘t pufagi, oshqozonosti be’zi faoliyatiga ham ta’sirlarini butkul yo‘qotadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. “Mumtoz so‘z”-2019
2. Машковский М.Д. Лекарственные средства. I том Ташкент. Медицина 1987 г
3. Машковский М.Д. Лекарственные средства. II том Ташкент. Медицина 1987 г
4. Azizova S.S. Farmakologiya. “Yangi asr avlodi”-2006
5. Харкевич Д.А. Фармакология 2017